



Millî Eğitim Bakanlığı ve Kültürler
Eğitim, Bilim ve Kültür
Eğitimi ve Turizm Bakanlığı



Bilimsel Araştırmalar
Eğitim, Bilim ve Kültür
Bakanlığı



UNESCO
Türkiye
Millî Komisyonu



Pamukkale University
Faculty of Letters
Department of Turkish Language and Literature

Yunus Emre'nin
Vefatının 700.
Yılı Dolurken (1241-1321)
14-15 Mayıs 2021



ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI YUNUS EMRE SEMPOZYUMU



24-27 MAYIS 2021

<https://www.pau.edu.tr/altaydilmer>



ÜMMÎ BENEM YÛNUS benem dokuz atam dörttür anam
İşk od'una düşüp yanam sük u bâzâr nemdir benim

ALISHER NAVOIYNING “YOR TUTAR KO'NGLIMDA...” G'AZALINING SHOIR DEVONLARIDAGI MATNIY TAFOVUTLARI

Azimjon HAMIDOV⁷³

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning dastlab “Badoyi’ ul bidoya”, keyinchalik, “Xazoyin ul- maoniy” kuliyyotining “G’aroyib us-sig’ar” devonidan o’rin olgan “Yor tutar ko’nglimdan...” g’azali matnidagi tafovutlar haqida bahs yuritiladi. Ma’lumki, Alisher Navoiy 1492-1498-yillarda umri davomida yozgan lirik asarlarini “Xaoyin ul-maoniy” devonida tartib beradi. Buning uchun “Badoyi’ ul-bidoya” “Debocha”sida o’zi e’tirof etgan devon tartib berish tamoyillariga qat’iy amal qiladi. Shuningdek, “G’aroyib us- sig’ar” “Debocha”sidagi qaydlariga ko’ra, ulug’ shoir oldingi devonlardan o’rin olgan lirik merosini, avvalo, o’zi tahrir etadi hamda “Xazoyin ul-maoniy”ni tartib berish uchun ellik, oltmish yoki yuzga yaqin g’azal tayyor holga keltirilgandan so’ng Sulton Husayn Boyqaro ularni nazaridan o’tkaziladi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro tarafidan ham g’azallar tahrir etlganini bayon qiladi. (106) Ayonlashadiki, bu tahrirlar Alisher Navoiyning ishtirokida amalga oshirilgan. Ulug’ shoirning ikki devondan o’rin olgan bir g’azalning matnida muayyan tafovutlarning uchrashi tabiiy hol. Shu bilan bir qatorda Navoiy devonlarining ilmiy- tanqidiy matnini tayorlash, joriy yozuvimizda nashr etish jarayonlarida ham lirik asarlar matnlarida muayyan tafovutlar ro’y bergan. Devonlardagi g’azallar matnini qiyosiy o’rganish, avvalo, ulug’ shoir tomonidan amalga oshirilgan tahrirlarni aniqlash hamda keyingi davrlarda arab yozuvida bir-biriga yaqin shaklda yozilgan so’zlarning o’qish jarayonida o’rning almashganini muayyanlashtirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. (185)

Dastlab “Badoyi’ ul-bidoya” devonidan o’rin olib, keyinchalik “G’aroyib us-sig’ar”ga kiritilgan sakkiz baytli “Yor tutar ko’nglumda...” g’azali ham xuddi shunday tahrir-u ayrim so’z bilan bog’liq matniy tafovutlar bilan bizgacha yetib kelgan. Dastlab maqta’ bayti mavjud bo’lmagan bu g’azalning keyingi devonidagi matnida maqtaning mavjudligi, to’rtinchi-sakkizinchi baytlarning dastlabki devondagi g’azal matni bilan solishtirilganda, ularning to’rttasi o’zaro o’rin almashganligi hamda tahrir jarayonida g’azalning to’rtinchi baytidan voz kechilganligi fikrimizning dalilidir. (151) Tabiiyki, bunday matniy tafovutlar g’azalning kompozitsiyasi, mazmuni, badiiyatiga ta’siri etmay qolmaydi. G’azaldagi baytlarning o’zaro o’rin almashishi ulardagi mazmunni vazn, qofiya, radif singari mumtoz poetikaga xos unsurlar bir g’azal holida shakllanishiga imkon yaratganini ko’rsatadi. Maqolada g’azal matnida kiritilgan o’zgarishlar misolida Alisher Navoiyning ilgari ijod etilgan parokanda – mustaqil baytlardan tarkib topgan g’azallariga keyingi munosabati, ularni badiiy qurilishi va mazmunining yanada mukammallashtirish uchun olib borgan ijodiy faoliyati tahlillar asosida ochib beriladi.

Kalit So’zlar: “Badoyi’ ul-bidoya”, “Xazoyin ul-maoniy”, “G’aroyib us-sig’ar”, g’azal, bayt, maqta’, mazmun, qofiya, radif.

ZIYA GÖKALP’IN ŞİİR SANATI

Aydan HANDAN⁷⁴

ÖZET

Milli Türk edebiyatı dönemindeki düşünce akımları arasında Türkçülük akımının büyük önemi var. Bu akımın kurucusu şair, yazar Ziya Gökalptı.

⁷³ Öğr. Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi (O’zbekiston). hamidov_azimjon@mail.ru

⁷⁴ Doç. Dr. Bakü Devlet Üniversitesi Öğretim Üyesi. İletişim: aydan19@mail.ru